

BOSHLANG'ICH SINFI ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA XALQ OG'ZAKI IJODIYOTI NAMUNALARINI O'RGANISHNING AHAMIYATI

Sharipova Mehriniso Hoshim qizi

Termiz davlat pedagogika instituti boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 2- kurs talabasi

Ilmiy rahbar: Tursunov Jaxongir Panjixonovich

Annotasiya:

Mazkur maqolada boshlang'ich sinflarda xalq og'zaki ijodini o'rganish orqali o'quvchilarda shakllanib boradigan xususiyatlar va xalq og'zaki ijod namunalari : maqol, matal, ertak, topishmoq, rivoyat, tez aytish kabi janrlar haqida so'z boradi.

Аннотация:

В данной статье рассматриваются особенности, формирующиеся у учащихся посредством изучения устного народного творчества в начальных классах, и образцы устного народного творчества: пословица, поговорка, сказка, загадка, повествование, скороговорка.

Annotation:

This article tells about the features that are formed in students by studying folk oral creativity in the elementary grades and examples of folk oral creativity : Proverbs, matals, fairy tales, riddles, narratives, fast sayings.

Kalit so'zlar: Boshlang'ich sinf, xalq og'zaki ijodi, ertak, maqol, topishmoq, rivoyat, masal, tez aytish, ma'naviy tarbiya.

Ключевые слова: начальный класс, устное народное творчество, сказка, пословица, загадка, повествование, притча, скороговорка, духовное воспитание.

Keywords: elementary class, folk oral creativity, fairy tale, proverb, riddle, narrative, parable, fast saying, spiritual education.

Hozirgi axborotlashgan jamiyat asrida yashar ekanmiz, ta'lim - tarbiya tizimida milliy va umuminsoniy qadriyatlarga tayanish tobora qaror topib bormoqda .Yosh avlodni yoshligidan ma'naviyatli qilib tarbiyalashda asrlar davomida sayqallanib kelayotgan xalq og'zaki ijodidan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Shunga ko'ra, xalq og'zaki ijodining barcha janrlari, xususan, ertak, maqol, topishmoq, tez aytish, masal, xalq qo'shiqlari o'quvchilarni ma'naviy yetuk, sog'lom avlod qilib tarbiyalashda asosiy omil hisoblanadi. Xalq og'zaki ijodini

o'rganish asosan o'quvchilarda xalqning turmush tarzi, ijtimoiy va maishiy hayoti, mehnat faoliyati, tabiat va jamiyatga qarashlari, inson va olamga nisbatan his tuyg'ulari, baxtli va adolatli zamon va shu kabilar haqida tushuncha tasavvurlar hosil qiladi.

Boshlang'ich sinf Ona tili va O'qish savodxonligi darsliklarida berilgan xalq og'zaki ijodiga mansub materiallarni o'qib o'rganish jarayonida o'quvchilar o'zlari sevib o'qigan ertak - rivoyatlaridagi qahramonlar kabi vatanparvar, mard, jasur, to'g'riso'z, mehnatsevar, kamtar va mehribon insonlar bo'lib yetishishni orzu qiladilar va shunga tomon harakat qila boshlaydilar. Ana shunday insonlar haqida tasavvur hosil qiladilar, ezgulikning hayotdagi o'rni haqida bilib oladilar. Bularning hammasi bolaning har tomonlama yetuk bo'lib shakllanishiga yordam beradi.

Istiqlol tufayli erishilgan yutuqlarimiz haqidagi asarlar milliy g'urur tuyg'ularini tarbiyalashga xizmat qiladi. Boshlang'ich sinf Ona tili va O'qish savodxonligi darslarida xalq og'zaki ijodidan berilgan namunalarni o'rganish uchun boshlang'ich sinf o'quv dasturlarida muayyan vaqt ajratib ko'rsatilgan bo'ladi. 1- sinfdan tortib 4- sinfgacha Ona tili va O'qish savodxonligi darsliklarida xalq og'zaki ijodi alohida bo'lim sifatida ko'rsatilgan va ularni o'rganish uchun muayyan soatlar belgilangan.

Darslikda berilgan ertaklarni o'qish orqali o'quvchilar sarguzashtlar olamiga sayohat qilishadi. Nima yaxshi- yu, nima yomonligini ertakdagi voqea hodisalar orqali uqib oladilar. Ertak qahramonlarining holatini so'zlab berish yoki voqealarni rasmda ifodalashga alohida etibor qaratadilar[6].

Boshlang'ich sinflarda ertakni o'rganishda quyidagi maqsadlar ko'zda tutiladi:

1. O'quvchilarni har tomonlama barkamol inson ruhida tarbiyalash, ularda Vatanga, jamiyatga muhabbat hissini tarbiyalash ;
2. O'quvchilarga xalq ertaklari bo'yicha Milliy dastur asosida bilim berish ;
3. O'quvchilarda ertakni o'rganishga qiziqish uyg'ota olish ;
4. O'quvchilarning o'qish, og'zaki nutq malakalarini rivojlantirish ;
5. Texnika vositalaridan foydalanishga o'rgatish ;

Maqol, matal va rivoyatlar azaldan muhim didaktik vazifani bajarib kelgan. Ular ishonarli, sodda va tushunarli tarzda odamlarga qanday yashash va ishlashni o'rgatadi, ularni tabiat hodisalarini uzoq vaqt davomida kuzatish natijalari bilan tanishtiradi, muayyan vaziyatda qanday harakat qilish kerakligi haqida ma'lumotlar beradi. Inson hayoti davomidagi faoliyatining asosiy qoidalari va axloqiy - estetik me'yorlari aniq shakllantirilgan bu janrdagi asarlar hayot darsligiga aylandi[7].

Topishmoq o'quvchilarning aqliy faoliyatini rag'batlantiradi, aqliy mehnatga qiziqish uyg'otadi, zukkolikka, topqirlikka va mantiqiy fikrlashga o'rgatadi. Topishmoq bolaning dunyoni tushunish darajasini sezilarli darajada kengaytiradi[8].

Zamonaviy boshlang'ich maktablarda o'qib tushunish va uni nutqiga chiqarib bera olish ko'nikmalarini to'liq egallash vazifasi bilan bir qatorda o'quvchilarning adabiy rivojlanishi

vazifasi turibdi . Bu borada xalq og‘zaki ijodining o‘rni katta . Maqol va matallar adabiy tilni boyitish, unga ta’sirchanlik, aniqlik berishda katta ahamiyatga ega. Boshlang‘ich sinf "Ona tili va o‘qish savodxonligi" darsliklaridagi xalq og‘zaki ijodiga mansub asarlar mundariyasi tahlilidan ham ko‘rinadiki, o‘quvchilar maktabga ilk qadam qo‘ygan davridanoq xalqning o‘lmas merosidan, ma’naviyat sarchashmasidan, ya’ni og‘zaki ijodi namunalaridan bahramand bo‘lar ekan. Bu asarlarni o‘rganish jarayonida ularning tarbiyaviy jihatlariga diqqat qilish, ulardan yosh avlodning insoniy fazilatlarini shakllantirishda unumli foydalanish esa har bir o‘qituvchining eng mas’uliyatli vazifasi bo‘lib qolaveradi[9]. Xulosa qilinganda, har qanday ma’naviyatli inson avvalo rostgo‘y, halol va mehnatsevar bo‘lmogi lozim.

Xalq og‘zaki ijod namunalarida ana shunday fazilatlar ulug‘lanadi. Yolg‘onchilik, baxillik va dangasalik kabi fazilatlar qoralanadi[10]. Ana shunday mazmundagi xalq og‘zaki ijodini boshlang‘ich sinflarda o‘qib-o‘rganilganda, o‘quvchilarda shunday insoniy fazilatlar kamol toptirilishiga alohida e’tibor qaratish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Chunki kichik yoshdagi o‘quvchilar juda ta’sirchan bo‘ladilar, ular xalq og‘zaki ijod namunalarida berilgan ezguliklardan quvonadilar, aksincha yovuzliklardan nafratlanadilar[11]. Ana shu jarayonda o‘quvchilarda komillik xislatlarini shakllantirish ayniqsa alohida o‘rin tutadi.

ADABIYOTLAR:

1. Matjonov S., A. Shoalilov, X. Gulomova, SH. Sariyev, Z. Dolimov, 4-sinf O‘qish kitobi -Darslik. Tosh., "Yangiyo‘l Poligroaph Service", 2011.
2. Mirzayev T. va boshqalar "Ozbek xalq og‘zaki xrestomatiya" T.Mirzayev va boshqalar "Aloqachi" 2008y.
3. Mavlonova K. [va boshq.]. Ona tili va o‘qish savodxonligi. 1-qism Darslik 2-sinf uchun. -Toshkent: "Respublika ta’lim markazi", 2021.
4. Qosimova K. Boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qitish metodikasi. - Toshkent: "O‘qituvchi", 1985.
5. Ro‘ziyeva M.Y. Bolalar folklori. O‘quv qo‘llanma. -B.: "Durdona", 2022.
6. Норбошева, М. О. (2021). Роль семьи и дошкольной образовательной организации в формировании личности ребёнка. Наука и образование сегодня, (7 (66)), 66-67.
7. Норбошева, М. А., & Норбошева, М. А. (2018). Реформы системы дошкольного образования в Узбекистане. In Фундаментальные и прикладные исследования: гипотезы, проблемы, результаты (pp. 25-29).
8. Норбошева, М. О. (2020). Мактабгача ёшдаги бола шахсининг ривожланишида мулоқотнинг ўрни. Педагогика ва психологияда инновациялар, 9(3), 7.
9. Норбошева, М. О. (2022). МУЛОҚОТГА ЎРГАТИШ БОЛА ШАХСИНИ ШАКЛЛАНТИРИШНИНГ ЎЗИГА ХОС ШАКЛИ СИФАТИДА. ИННОВАЦИИ В ПЕДАГОГИКЕ И ПСИХОЛОГИИ, 5(4).

10. Norbosheva, M. A. (2021). Problems of personal formation of the child in the family in the studies of scientists of Uzbekistan. Asian Journal Of Multidimensional Research, 10(6), 297-303.
11. Норбошева, М. (2020). МАКТАБГАЧА ЁШДАГИ БОЛАЛАРНИНГ МУЛОҚОТ ЖАРАЁНИДА ПСИХИК ВА ШАХС СИФАТЛАРИНИНГ РИВОЖЛАНИШ ХУСУСИЯТЛАРИ. Педагогика ва психологияда инновациялар, 11(3).